

Qanqa kompleks ekspeditsiyasi qayta tiklandi

O'zR FA Milliy arxeologiya markazining Qanqa kompleks ekspeditsiyasi oldiga 2021-yilda Qanqa yodgorligidagi arxeologik izlanishlar yodgorlikning o'rta asrlar davriga oid yuqori madaniy qatlamlarini o'rganishni vazifasi qo'yilgan edi. Arxeologik izlanishlar davomida ekspeditsiya a'zolari tomonidan Qoraxoniylar davriga oid o'ziga to'q kishining turar-joy xonadoni qoldiqlari ochildi. Turar-joy devorlari fundamentiga 2-4 qatorgacha pishiq g'ishtlar terilib, yuqori qismi sinch uslubida qurilgan. Xonadonning ayrim xonalari, shuningdek, koridor pollari o'z davri uchun qimmatbaho hisoblangan pishiq g'ishtlar bilan qoplangan. Xonalarning ayrimlariga pishiq g'ishtlardan maxsus yuvinish joylari qilingan.



Olib borilgan tadqiqotlar davomida, shuningdek, mahsulotlar saqlashga mo'ljallangan yer ostiga qilingan maxsus xona ham ochib o'rganildi. Mazkur inshoot qadimda ajdodlarimizning mahsulotlarni saqlash usullari haqida ma'lumot berib, o'ziga xos "muzxona" – muzlatgichlar yaratishganligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu yer osti "muzxona"da mahsulotlar saqlangan idishlar bilan birgalikda Qanqa aholisining savdo aloqalaridan dalolat beruvchi chig'anoqdan yasalgan maxsus idish ham topildi.



Tadqiqotlar davomida qayd etilgan topilmalar Qanqa shahri qadimgi Toshkent vohasida joylashgan Buyuk ipak yo'lidagi yirik markazlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi.

